

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**FILOLOGIYA FAKULTETI O`ZBEK TILI
YO`NALISHI 4-KURS 402-GURUH TALABASI**

**Mahmudxonova Asalxon Faxriddin
qizining**

Predikat turlari va predikativlik
mavzuidagi

KURS ISHI

Ilmiy rahbar:

k.o'qit. A.Amanov

Namangan-2017

Predikat turlari va predikativlik

Predikat va uning aktantlari munosabatidan tashkil topgan sintaktik qurilma **predikativ ifoda** hisoblanadi. Predikativ ifoda tarkibidagi predikatlar miqdoriga ko`ra bir predikatli va ko`p predikatli tiplari ajratiladi: faqat bir predikat va uning argumentlari munosabatidan tashkil topgan qurilmalar **bir predikatli**, birdan ortiq predikat ishtirok etgan qurilmalar **ko`p predikatli** sanaladi.

Bir predikatli qurilmalar **monopredikativ gaplar** deb ham yuritiladi. Bu haqda A.Sobirov o`z fikrlarini bildiradi. Monopredikativ gaplar nutqda yaxlit holda muayyan ko`rinishlarda, sistem paradigmatic shakl o`zgarishlarda voqe bo`ladi. Bunday shakl o`zgarishlarning ikki turini farqlash mumkin:

1. Asosiy struktura doirasidagi shakl o`zgarishlari.
2. Asosiy struktura doirasiga kirmaydigan shakl o`zgarishlari.

Asosiy struktura doirasidagi shakl o`zgarishlari deyilganda, monopredikativ gaplarning obyektiv mazmun tashuvchi bosh va ikkinchi darajali bo`laklar ishtirokida shakllangan, shuningdek, mazkur kurs ishida “negiz gap” deb yuritiluvchi struktura doirasida voqe bo`luvchi nutqiy paradigmatic shakl o`zgarishlari tushuniladi. Asosiy struktura doirasidagi paradigmatic shakl o`zgarishlari, odatda, gapning asosiy strukturasida yuzaga chiquvchi biror xildagi nutqiy ma`noni ifoda etish, ko`rsatish uchun xizmat qiladi. Gapning asosiy strukturasida esa obektiv modallik, shaxs-son, tasdiq-inkor, ifoda-maqsad, to`liq-to`liqsizlik, emotsionallik va boshqa shu kabilarga ko`ra farqlanuvchi nutqiy ma`nolar yuzaga chiqadi. Shunga ko`ra, asosiy struktura doirasidagi nutqiy paradigmatic shakl o`zgarishlarning obyektiv modallikni ko`rsatuvchi shakl o`zgarishlar, shaxs-sonni ko`rsatuvchi shakl o`zgarishlar, ifoda maqsadni ko`rsatuvchi shakl o`zgarishlar, to`liq-to`liqsizlikni ko`rsatuvchi shakl o`zgarishlar, his-hayajonga munosabatni (emotsionallikni) ko`rsatuvchi shakl o`zgarishlar kabi ko`rinishlari farqlanadi. Mazkur shakl o`zgarishlar, mohiyatan, struktural maydon maqomida bo`ladi. Aslida, ularni ikki turga ajratib o`rganish maqsadga muvofiq. Zero, ularning ayrimlari monopredikasiyani (monopredikativ gaplarni) nutqiy

shakllantiruvchi tayanch mexanizmlar sifatida voqe bo'ladi, ayrimlari esa monopredikasiyani nutqiy shakllantirishda bevosita ishtirok etmaydi. Yuqorida keltirilgan paradigmatic shakl o'zgarishlar maydonlaridan, xususan, obyektiv modallik shaxs-son, tasdiq-inkor maydonlari monopredikasiyani nutqiy shakllantiruvchi tayanch mexanizmlar sifatida yuzaga chiqadi. Ular predikatsiyani nutqiy-grammatik sathda voqe etish uchun xizmat qiladi. Mazkur maydonlarning har biri alohida-alohida axborot obyektini tashkil etadi. Boshqa ko'rinishlardagi nutqiy paradigmatic shakl o'zgarish maydonlari, xususan, ifoda maqsadi, to'liq-to'liqsizlik, his-hayajonga munosabat (emotsionallik) kabilarni ko'rsatuvchi paradigmatic shakl o'zgarishlar maydonlari monopredikasiyaning nutqiy-grammatik shakllanishi bilan bog'liq bo'lmaydi. Quyida ana shu xildagi paradigmatic shakl o'zgarishlar maydonlari xususida to'xtalinadi.

Ifoda maqsadni ko'rsatuvchi nutqiy paradigmatic shakl o'zgarishlar. Monopredikativ gaplar ifoda maqsadini ko'rsatuvchi nutqiy-grammatik vositalar bilan sistem o'zgarib, nutqiy paradigmatic maydon hosil qiladi. Bunda monopredikativ gapning lisoniy jihati, ya'ni andozasi (turg'un jihat) o'zgarmaydi, faqat uning kommunikativ maqsad bilan bog'liq bo'lgan nutqiy qiyofasigina (o'zgaruvchan jihat) o'zgaradi. Ifoda maqsadni ko'rsatishiga ko'ra monopredikativ gaplarda umumlashtirishning yuqori bosqichida xabar ifoda etuvchi nutqiy shakl, so'roq ifoda etuvchi nutqiy shakl kabi zidlangan variativ ko'rinishlar farqlanadi. Masalan, "Ega-hol-kesim" lisoniy andozasi "*U universitetga kirib keldimi?*" kabi nutqiy variativ shakllarni hosil qilib yuzlanishi mumkin. Bunda ifoda maqsadini ko'rsatuvchi nutqiy shakllarning jamiga asoslangan umumiy maqomdagi mavhum shakl invariant sifatida yuzaga chiqadi.

Monopredikativ gaplarning xabar ifodalovchi nutqiy shakli, odatda, xabar, istak, buyruq intonatsiyaga, shuningdek, tarkibiy elementlarning odatdagi (normativ) tartibiga ega bo'lishi bilan ham xarakterlanadi.

Monopredikativ gaplarning xabar ifodalovchi nutqiy shakli invariant sifatida o'zining ichki variativ shakllar sistemasiga ega bo'laverishi mumkin. Bunda

variativ farqlanuvchi konstruksiyalar kesmalarning shakily farqlanishiga asoslanadi.

Monopredikativ gaplarning so`roq ifodalovchi nutqiy shakli, asosan, -mi, -chi, -a, -ya kabi so`roq yuklamalari: kim? nima? qayer? qaysi? qayerda? qachon? kabi so`roq olmoshlari yordamida shakllangan konstruksiyalar orqali voqe bo`ladi. Masalan: *Siz armiyaga ketyapsizmi?* (Sh.Bo`tayev); *Kim kerak edi?* (Sh.Bo`tayev); *Bileting qani?* (Sh.Bo`tayev).

Monopredikativ so`roq ifoda etuvchi nutqiy shakli o`rni bilan so`roq ohangi yordamida ham yuzlanaverishi mumkin.

Bunday holda konstruksiya tarkibida so`roq ifoda etuvchi nutqiy-grammatik vositalar (so`roq yuklamalari, so`roq olmoshlari) ishtirok etishi shart emas. Bunda nutqiy vaziyatga qarab har qanday xabar gap so`roq gapga aylanaverishi mumkin. Masalan: *Anvarjon keldi. Anvarjon keldingmi?*

Monopredikativ gaplarning so`roq ifoda etuvchi nutqiy shakli invariant sifatida yuzaga chiqishi va o`z navbatida, tarkibiy variativ shakllar sistemasini hosil qilishi mumkin. Bunda variativlik so`roq ifoda etuvchi grammatik vositalar turi, shuningdek, intonatsion turlanish asosida yuzaga keladi.

Ko`p predikatli qurilmalar predikatlarning gapdagi rollari bir xil emas. Agar predikat ifoda tarkibidagi har bir predikat predikativlik belgisiga ega bo`lsa, qo`shma gap, faqat predikatlardan biri predikativlikni aks ettirsa, sodda gap sanaladi.

Polipredikatli sodda gaplarda bir predikat ikkinchi predikatning argumenti pozitsiyasida keladi. Natijada o`ziga xos predikatlar darajalanishi vujudaga keladi. Predikatlar darajalanishida argument pozitsiyasida kelgan predikat qo`shilma predikat, qo`shilma predikatdan iborat argumentga ega predikat qo`shiluvchi predikat hisoblanadi. Shunday qilib, polipredikatli qurilmalarda qo`shilma va qo`shiluvchi predikatlar o`zaro muvofiqlashgan bo`lib, biri ikkinchisini taqazo etadi. Predikat ifoda tarkibida qo`shilma predikatni borligi uning semantik tuzilishini murakkablashtiradi.

Ravishdosh, sifatdosh, harakat nomli oborotlar deb yuritiluvchi qurilmalar bir butun holda asosiy predikatning argumenti pozitsiyasida – qo`shilma predikat vazifasida keladi. Ko`p predikatli sodda gaplarda argument pozitsiyasida keluvchi predikativlik belgisiga ega bo`lmagan predikatlar ma`lum propozitsiyani ifodalasada, ammo gap bo`lib shakllana olmaydi. T.M.Shmelyovaning fikricha, propozitsiyaning bunday moddiylashuvi uning ikkilamchi ifodalanishi asosiy, boshqa barcha hollardagi ifodalanishi esa ikkilamchi ifodalanish ekanini ta`kidlaydi. Propozitsiyaning ikkilamchi ifodalanishi sodda gapni mazmun va grammatik tomondan murakkablashtiradi. Masalan, *Asrlarning qayg`usin qarg`ab, shodlik va baxt kuyini chaldim*. Bu yerda ikki propozitsiya mavjud, ikkinchi propozitsiya (*shodlik va baxt kuyini chaldim*) propozitsiyaning asosiy ifodalanishidir. Shuning uchun u gapning tuzilish asosini tashkil qiladi. Birinchi propozitsiya (*asrlarning qayg`usini qarg`adi*) ikkilamchi usul bilan ifodalangan. Shuning uchun u mustaqil gap shakliga ega emas.

N.Mahmudov to`g`ri ta`kidlaganidek, ikkilamchi usulda ifodalangan propozitsiya hamisha birlamchi usulda ifodalangan propozitsiya bilan qo`shilib, ana shu asosiy propozitsiya ifodasi bo`lgan sodda gapning semantik tuzilishini murakkablashtiradi.

Ayrim tilshunoslar bunday predikativ ifodalarni (propozitsiyani ikkilamchi ifodalarini) maksimal sintaktik birliklar sifatida tan oladilar. Shuning uchun, avvalo, maksimal sintaktik birliklar haqida to`xtalishga to`g`ri keladi.

Sintaktik nazariyalarda sintaktik birliklar minimal va maksimal sintaktik birliklarga ajratiladi. Ammo minimal sintaktik birliklarga ham, maksimal sintaktik birliklarga ham ajratish bir xil emas.

An`anaviy va tener grammatikasida (fransuz tilshunosligida) gap bo`laklari minimal sintaktik birliklar sifatida qaralsa, tobelanish grammatikasida so`z shakl (harflar silsilasi), bevosita ishtirokchilar grammatikasida esa morfema sintaktik birliklar hisoblanadi. Shuningdek, maksimal sintaktik birliklar masalasida ham xilma-xil fikrlar bor.

I.B.Dolinina fikricha, tugallangan sintaktik tuzilishga ega fe'l asosli murakkab grammatik ob'ekt maksimal sintaktik birliklar hisoblanadi. Bundan ko`rinib turibdiki, u fe'l asosli nazariyaga tayanadi.

Odatda, barcha sintaktik nazariya vakillari har qanday gaplarni bir butun holda maksimal sintaktik birliklar sifatida tan oladilar. Ammo ko`p predikatli gaplarni bir maksimal sintaktik birlik sifatida qarash kerakmi yoki bir necha maksimal sintaktik birliklarni o`z ichiga olgan maksimal sintaktik birlik sifatida qarash kerakmi degan masalada bir xil fikr yo`q.

An'anaviy va tener grammatikasi mazkur masalaga kengroq nuqtai nazardan qaraydi. Gapni bir butun holda maksimal sintaktik birlik sifatida tan olish bilan birga uning ma'lum tuzilish parchalarini (agar ular bir butun gap ichida mavjud bo`lsa) ham maksimal sintaktik birliklar sifatida tan oladilar. Xususan, qo`shma gapni bir butun holda maksimal sintaktik birlik hisoblash bilan birga uni tashkil etgan qismlarni butun ichida alohida-alohida maksimal sintaktik birliklar sanaydilar. Masalan, *Guldastani olgach, maktabiga qarab tez-tez yurib ketdi...*

(Ўткир Усмонов, Гирдоб. – Тошкент, 1995. – Б. 8.)

Ushbu gapimizda uch maksimal sintaktik birlik (V.G.Admoni terminologiyasi bo'yicha elementar gaplar) mavjud bo`lib, ular quyidagilar:

- 1) ergash gapli qo`shma gap bir butun holda;
- 2) bosh gap;
- 3) ergash gap.

O.Espersen, L.Ten'er, L.L.Ioffik esa yuqoridagi tipdagi bosh gaplarni tugallangan sintaktik tuzilish hisoblanmaydi. Shuning uchun ularni maksimal sintaktik birliklarga qo`shmaydilar. Ularning fikricha, har qanday ergash gaplar asosan turli sintaktik pozisiyalarning (ega, kesim, aniqlovchi, to`ldiruvchi, hol pozisiyaning) turli xil grammatik ifodalarining bir usulidir.

Ko`pchilik tilshunoslar fe'lli oborotlar va umuman predikativlik shakliga ega bo`lmagan boshqa predikatlarni, ya'ni propozitsiyaning ikkilamchi ifodalarini ham maksimal sintaktik birlik hisoblash tarafdoridirlar.

Darhaqiqat, bunday sintaktik qurilmalar butun bir gapga nisbatan bir butun holda qo'llaniladi. Ular o'z ichida predikat asosida birlashgan ma'lum tipdagi sintaktik tuzilishni – blokni hosil qiladi.

I.B.Dolinaning fikricha, bunday sintaktik tuzilishlarning alohida maksimal sintaktik birliklar sifatida ajratilishi minimal sintaktik birliklarning sintaktik tahlili jarayonida uchraydigan kamchilikka chek qo'yadi: bir tomondan, ular o'z ichida sintaktik bo'linish xususiyatiga ega, ikkinchi tomondan, bir butun holda gap tarkibida bir gap bo'lagi kabi ishtirok etadi. Bu esa yuqoridagi predikativ ifodalarning ichki sintaktik munosabatlari butun gapga nisbatan nofunktsional, ularning funksiyalashuvi faqat shu predikativ ifodaning o'zi uchun xos ekanini ko'rsatadi.

Boshqa predikatlarni o'ziga qo'shib olish xususiyatiga ega predikatlarning eng xarakterlisi jarayon va kauzativ predikatlardir.

Jarayon predikatlar harakatning turli jarayonini (boshlanishi, davomi va tugashi) ko'rsatadi. Masalan: *boshladi, davom ettirdi, tugatdi, to'xtatdi*. Jarayon predikatlar asosiy harakat bildiruvchi predikatni argument qilib keladi. Argument pozitsiyasidagi asosiy harakatni bildiruvchi predikat jarayonlilik grammatik ma'nosini bildiruvchi predikat talabi bilan ma'lum kelishik shaklida bo'ladi:

Aziz bir-ikki yo'talib, gapirishda davom etdi.

(Ўткир Усмонов, Гирдоб. – Тошкент, 1995. – Б. 40.)

Qo'shiluvchi predikat pozitsiyasida morfologik kauzativ fe'llar kelishi ham mumkin: *to'xtatdi, tugatdi, davom ettirdi* va boshqa. Bunday ko'p predikatli qurilmalar kauzativ vaziyatni ifodalaydi. Masalan, *Karim kitob o'qishni to'xtatdi (tugatdi, davom ettirdi)*. Agens, kauzasiyalovchi vaziyat predmeti *Karim*, pasiens, kauzasiyalanuvchi vaziyat predikati nol ko'rsatkichli o'ziga o'zi kauzasiyalanuvchi holat *o'qishni to'xtatmoq*, kauzasiya munosabatini ifodalovchi vosita *t* morfemasidir. Bu vaqtda grammatik ega murakkab ma'noga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida kauzativ vaziyatning agensi va pasiensi ifodalaydi.

Qo'shuvchi predikat pozitsiyasida leksik kauzativ fe'llar ishtirok etishi mumkin. Masalan, *majbur qildi, qo'zg'adi, topshirdi, buyurdi, taklif qildi* va

boshqalar. Bu vaqtda kauzasiya agensi va pasiensi ajralgan holda ifodalanadi. Masalan, *Rasul Olloyorovich Azizni gapirishga majbur qildi*.

(Ўткир Усмонов, Гирдоб. – Тошкент, 1995. – Б. 106.)

Bunday tipdagi qurilmalarda ega pozitsiyasida kelgan bosh kelishikdagi ot agensni, kauzativ vaziyat antisendentining predikatini, to'ldiruvchi pozitsiyadagi tushum kelishigidan ifodalangan ot pasiensi, antisendent predmetini, jo'nalish kelishigidagi harakat nomidan ifodalangan komponent kauzasiyalashuvi holatni, kauzativ fe'llar esa konsekvent va antisendent o'rtasidagi kauzativ munosabatni ifodalaydi.

Predikativlik so'zi lotincha *praedicativus* so'zidan oligan bo'lib, "tasdiqlovchi", "qat'iy" degan ma'nolarni anglatadi. Predikativlik – gapni shakllantiruvchi sintaktik kategoriya bo'lib, gap mazmuniga obyektiv borliqning u yoki bu hodisasi haqida xabar berish xususiyatini beradi.¹

Predikativlik haqida bir qancha qarashlar mavjud bo'lib, bu haqda Xurshid Xayrullayev o'z mulohazalarini bildirgan. Predikativlik hodisasi talqini tilshunoslik fanida muammoli masalalardan biri bo'lib keldi va bugungi kunda ham shunday bo'lib qolmoqda. To'g'ri, rus tilshunosligida predikativlik V.V.Vinogradov ta'limotida predikativlik hodisasiga ta'rifi berilgandan so'ng mazkur muammo uzil-kesil hal etilgandek bo'ldi. Bu ta'rifni eslatib o'tishni lozim deb topdik: "Gapni shakllantiruvchi predikativlik hodisasining mohiyati gap mazmunining voqelikka munosabatini tashkil etishdan iboratdir".

Mazkur fikrga qisman qo'shilish mumkin, zero predikativlik gapdan boshqa til birliklarida ham mavjud bo'la oladi. Bundan tashqari, V.V.Vinogradov ta'limotida predikativlik shaxs, zamon va modallik kategoriyalari orqali ifodalanishi shart qilib qo'yiladi.

Gapning muhim belgisi sifatida predikativlik e'tirof etiladi. Predikativlik deganda esa kesimning ega bilan bog'lanish qobiliyati tushuniladi.

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2004. – 7-ж. – Б. 166.

Predikativlikni tashuvchi muhim boʻlak kesim sanaladi. Shuning uchun gapda koʻp hollarda ega tushib qolishi mumkinligi, lekin kesimning hech qachon tushib qolmasligi, kesimsiz gap boʻlmasligi bayon etiladi. Potebnyaning bu fikri bugungi kunda ham dolzarbligini yoʻqotgani yoʻq. Bu gʻoya hozirgi oʻzbek tilshunoslari tomonidan oʻzbek tili materiallari asosida rivojlantirilmoqda. Kesim uchun xoslangan eng muhim soʻz turkumi tuslangan feʼl, yaʼni verbum finitum ekanligi, shuning uchun uning oʻzi ham eng kichik gap hisoblanishini, feʼlning aniqlanishi minimum gapning aniqlanishi, boshqa barcha soʻz turkumlari va gap boʻlaklari unga boʻlgan munosabatlariga koʻra belgilanishi bayon qilinadi.

Bu fikrlarga tayanib frantsuz tilshunosi L.Tenerning “gap strukturasi tugunlar shajarasidan tashkil topadi”, degan kontseptsiyasi A.Potebnyaning gap markazi haqidagi qarashi natijasidir, deyish mumkin.²

M.Mirzaev, S.Usmonov, I.Rasulovning “Oʻzbek tili” darsligida predikativlik quyidagicha izohlangan: “Gapda soʻzlovchining aytilayotgan fikrga boʻlgan munosabati ifodalanadi. Bu predikativlikdir”.

A.Gʻ.Gʻulomov, M.A.Asqarovaning “Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Sintaksis” qoʻllanmasida esa bunday deyiladi: “Har bir gapning real borliq haqida biror xabar bayon qilishi, shuni ifodalashi, gap mundarijasining real voqelik bilan bogʻliq ekanligini, aloqadorligini koʻrsatadi. Bu hodisa – gap, nutq mundarijasining real voqelik bilan aloqadorlik hodisasi – predikatsiya sanaladi”

Biz predikativlikni gap mundarijasining real voqelik bilan umumiy bogʻliqligi, aloqadorligini koʻrsatuvchi kategoriyasi deb tushunamiz.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida esa predikativlik hodisasining proppozitsiya tushunchasi bilan bevosita bogʻliqligi, boshqacha aytganda, proppozitsiya mavjud ekan, predikativlik ham voqe ekanligi ilmiy asoslanmoqda va predikativlik hodisasining zamon tushunchasi bilan mutlaqo aloqasi yoʻqligi alohida taʼkidlanmoqda. Bu haqida gapirganda, V.B.Kasevich hozirgi rus tilida amal qilinib kelinayotgan predikativlik hodisasining bir tomondan obyektiv modallik bilan, ikkinchi tomondan zamon tushunchasi bilan bogʻliqligi

² Гурмонов А. 2-ж., 43-б.

xususidagi mulohaza bilan qo`shilmaydi va mazkur omillarning har ikkisi ham predikativlikni shakllantiruvchi asosiy vosita bo`la olmasligini aytadi. Bu singari fikrni E.I.Shutovanning “Nazariy sintaksis masalalari” deb nomlanuvchi monografiyasida ham kuzatamiz. Muallif shaxs, zamon, modallik tushunchalari predikativlik kategoriyasining tarkibiy qismlari bo`la olmasligini, ba`zi tillarda esa, masalan, xitoy tilida predikativlik faqat fe`l orqali emas, balki ko`proq ot orqali ifodalanishini eslatadi.

Albatta, har qanday lisoniy hodisani har bir tilning o`z ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o`rganish lozim. Lekin shunday bo`lsa-da, predikativlikning ot orqali ifodalanishi mumkinligini boshqa tillarda ham kuzatish mumkin. Masalan, katta qilib chizilgan shahar xotirasining tepasiga *Samarqand* so`zi yozib qo`yilgan bo`lsa, mazkur so`z voqelikka munosabat bildirmayapti, deb ayta olmasak kerak. Bunda Samarqand so`zi “*Bu – Samarqand*” tarzidagi gapning ichki propozitsiyasi bilan teng ahamiyatga egadir. Bu esa, o`z navbatida, predikativlik hodisasining faqat gap doirasida emas, balki alohida funksional qiymatga ega bo`lgan til birligi orqali ham ifodalanishi mumkinligini ko`rsatadi. O`z-o`zidan ma`lumki, bunday nominativ birlik zamon, mayl tushunchalari bilan hisoblashmaydi.

Propozitsiya predikativlik vositasida shakllangan semantik qurilmani taqazo etadi. Bunda predikat bilan uning argumentlari munosabati voqe bo`ladi. Argument deganda, ma`lum bir predikatning semantik ta`siri doirasidagi nutq jarayonining ishtirokchi unsurlarini tushunamiz. Ana shundan kelib chiqib, yuqorida keltirilgan **Samarqand** so`zini argument va predikat munosabatini taqozo etuvchi (*Bu – Samarqand*) semantik struktura bilan tenglashtira olamiz.

Shunga e`tibor berish kerakki, nafaqat berilgan nominativ birlik, balki u tenglashtirilayotgan gap ham zamon, mayl tushunchalari bilan aloqador emas. Bordi-yu, gapda aniq zamon tushinchasi ifodalangan taqdirda ham, uning predikativlik hodisasi bilan aloqasi yo`q ko`rinadi. Masalan, *Vali Aliga kitob berdi*.

Keltirilgan jumlada “*bermoq*” fe`li orqali ifodalanayotgan predikat uch argument (*Vali, Ali, kitob*) bilan munosabatda ekanligini ko`ramiz. Shunga e`tibor berish kerakki, ayni paytda kitobni berilayotgani, berilganligi yoki berilajakligi

predikativlik hodisasini kuchaytirmaydi ham, kamaytirmaydi ham. Boshqacha aytganda, predikativlik ifodasi bu bilan bog`liq emas. Qiyoslang: *Vali Aliga kitob berdi – Ali Validan kitob oldi – Kitob Validan Aliga berildi – Valining Aliga kitob berishi – Alining Validan kitob olishi.*

Keltirilgan gaplarning so`nggi ikkitasidan boshqalarida harakat o`tgan zamonda berilmoqda. Mazkur gaplarni *Vali Aliga kitob bermoqda – Ali Validan kitob olmoqda – Vali Aliga kitob berajak* singari hozirgi va kelasi zamon shakllariga solib ko`rishimiz ham mumkin. Lekin bu bilan predikativlik biror jihatdan o`zgarib qolmaydi. Gapda ifodalanayotgan fikr qaysi zamonda ekanligidan qat`iy nazar berilgan jumalarning biri ikkinchisidan propozitsional rejada farqlanmaydi. Ichki propozitsiya keltirilgan sintaktik qurilmalar uchun yagonadir. Boshqacha aytganda, mazkur gaplarning tashqi sintaktik strukturalari farqli bo`lsada, ichki semantik, ya`ni tub strukturalarda farq kuzatilmaydi.

Aytish kerakki, yuqorida eslatib o`tilgan fikr va mulohazalar predikativlik hodisasining ilmiy talqini doirasidagi munozarali masalalarning faqat bir jihatini taqazo etadi. Ularning yana bir jihatini ega – kesim munosabatida ko`ramiz. Ma`lumki, bugungi kungacha predikativlik hodisasi ega bilan kesim munosabatiga chambarchas bog`liq ekanligi alohida ta`kidlanib kelindi. Biroq atov gaplarda mazkur munosabat ko`zga tashlanmaydi. Mavjud grammatik tadqiqotlarda ham bunday gaplarni bir tarkibli, ya`ni faqat ega tarkibidagina iborat gaplar sifatida izohlaydilar: “Nominativ gap ikki sostavli gapdagi egaga, ega sostaviga o`xshab ketadi... buning normal odatdagi holati, strukturalari bir sostavlilikdir. Bu gap kesim talab qilmaydi”.

Nazarimizda, odatda atov (nominativ) deb ataluvchi egadagina iborat gaplar tarzida nomlanishi bilan qo`shilish qiyin, zero kesim ishtirok etmagach, aniqrog`i, bunday gaplarda kesim uchun sintaktik o`rinning o`zi bo`lmagach, ularda ega ham mavjud bo`la olmaydi. Agar ega mavjud bo`lsa, kesim ham (gap tarkibidan tushirilgan holatda bo`lsa-da) mavjud bo`lmog`i lozim.

Ana shundan kelib chiqib, odatdagi atov gaplarni gap deb atalishi ham izohtalab ekanligini qayd qilamiz. Bizningcha, bunday gaplarni nominativ birliklar

jumlasiga kiritish maqsadga muvofiqdir. Ammo predikativlik masalasiga kelsak, ularning predikativli nominativ birliklar ekanligi izoh talab etmaydi. Ayni paytda predikativlik ohang vositasida ifodalanadi.

Bu singari nominativ birliklarni gap deb ataydigan bo'lsak, u holda gapning bosh bo'laklari tushunchasidan voz kechishga, eganing ham, kesimning ham sintaktik vazifasini yolg'iz intonatsiyani o'zi bajaradi, degan xulosaga kelishga to'g'ri keladi. Tabiiyki, bunday xulosalar o'rinsizdir. Shu bois nominativ birliklar gapning semantik va sintaktik salmog'i bilan tenglasha olishini ularda ohang vositasida ifodalanadigan predikativlik sababidan deb bilamiz. Bunda voqelikka munosabat bildirilishi uchun nominativ birlikni gap deb atash va unda ega-kesim munosabatini izlash mutlaqo shart emas.

Bunday predikativli birliklar jumlasiga an'anaga ko'ra "so'z gaplar" deb ataluvchi morfologik unsurlarni ham kiritish mumkin, zotan bunday gaplarda ham ega va kesim munosabati kuzatilmaydi. Mavjud grammatikalarda ham bu haqda ma'lumot keltiriladi: "bu xil gaplarda grammatik jihatdan ham, mantiq jihatdan ham ega yoki kesim bo'lmaydi. Har ikki bo'lak bir so'zda mujassamlashadi".

Fikrimizcha, so'z-gaplar xususidagi nazariya mutlaqo izohtalabdir. Bunda mazkur gaplarda eganing ham, kesimning ham yo'qligi asosiy sabablardan biri bo'lsa, ikkinchisi, ularning oddiy leksik unsurlarini taqazo etishdir. Bu unsurlarning predikativli bo'lishida esa ohang muhim omil sanaladi, zero uning yordamidagina mazkur birliklar bilan real voqelik o'rtasida munosabat o'rnatiladi: - *Barakalla, deydi bir yigit kulib. – Rahmat, sal turib ichamiz.*

Keltirilgan gaplarda ajratib ko'rsatilayotgan so'zlarga e'tibor bersak, ularning gap bo'lishi uchun grammatik asos yo'qligini ko'ramiz. Agar ularni gap deb tushunadigan bo'lsak, sun'iylikka yo'l qo'yiladi.

Shunday qilib, predikativlik hodisasining voqe bo'la olishi faqat gap doirasida emas, balki tilning shaxs, zamon, mayl va hatto ega, kesim tushunchalari bilan aloqasi bo'lmagan boshqa birliklarda ham kuzatilishini ko'ramiz. Bunday birliklarda predikativlik ifodasi uchun ohang xizmat qiladi.

Garchi gapning muhim belgisi sifatida predikativlikni deyarli barcha tilshunoslar e'tirof etsalar ham, lekin uning mohiyati masalasida lingvistlar o'rtasida turlicha yondashuvlar maydonga keldi. Predikativlik tushunchasi mantiqdan kirib kelganligi uchun XX asr boshlariga qadar bu tushuncha mantiqiy birliklar asosida izohlandi. Xususan predikativlik mohiyati haqida M.I.Steblyin-Kamenskiy shunday yozadi: "Bu mazmuniga ko'ra logikadagi subyekt va predikat o'rtasidagi munosabatning o'zidir."³ Natijada tilshunoslikda predikativlikka mantiqiy yondashuv maydonga keldi. Bunday yo'nalish qarashlariga ko'ra, har bir gap ma'lum hukmni ifodalaydi. Predikativlik hodisasi faqat gap asosinigina emas, balki hukm asosini ham tashkil etadi.

An'anaviy mantiq hukmning atributiv xarakteriga suyanadi. Shunga ko'ra hukm tuzilishi subyekt va predikatdan tashkil topadi. Uning formulasi S+P dir yoki S+P emas. Shunga muvofiq, hukm elementlari – subyekt (predmet haqidagi tushuncha) va predikat (belgi haqidagi tushuncha)ga analogiya yo'li bilan ega va kesim gapning asosi deb qaraldi. Ularning birinchisi substantiv so'zlar, ikkinchisi aksident (belgi) so'zlar hisoblanadi. Shuning uchun mantiqdagi predikat, grammatikadagi kesim subyekt yoki grammatikadagi eganing aksidenti (atributi) hisoblanadi va bunday strukturani e'tirof etuvchi mantiq atributiv mantiq sanaladi.

Predikativlikni bunday ikki a'zodan iborat deb tushunish ikki a'zoga bo'linmaydigan gaplarni gap doirasidan chetda qoldirdi. Mantiqiy oqim tarafdorlarining predikativ konsepsiyasidagi bunday cheklangan tomonni sezgan A.A.Shaxmatov gap tuzilishini belgilashda yuqoridagi sxemadan qochishga urindi. U G'arbiy Yevropa tilshunosligida maydonga kelgan psixologik kommunikatsiya ta'limotini qo'llab-quvvatlab, uni rivojlantirdi. Predikativlik atamasi o'rniga **predikativ munosabat** atamasini qo'llaydi.

Uning fikricha, kommunikatsiya ikki tasavvurning biri tobe, ikkinchisi hokim pozitsiyani egallaydi. Hokim tasavvur psixologik subyekt, tobe tasavvur esa

³ Стебляин-Каменский М.И. О предикативности // В кн. Спорное в языкознании. Изд.ЛГУ, 1974. – С. 44.

psixologik predikat hisoblanadi. Psixologik subyekt bilan psixologik predikat bog`lanib, predikativ munosabatni hosil qiladi.⁴

A.A.Shaxmatov konsepsiyasiga ko`ra, ikki sostavli gaplarda hukm strukturasi bilan kommunikatsiya strukturasi bir-biriga muvofiq keladi. Psixologik kommunikatsiyaning hukmdagi farqi klassik mantiq nuqtai nazaridan bo`laklarga bo`linmaydigan bir sostavli gaplar materiallarida namoyon bo`ldi. Mantiqiy subyekt – predikatlarga ajratib bo`lmaydigan *zerikarli, iltimos qilaman* tipidagi konstruksiyalarda psixologik subyekt va psixologik predikat bir a`zoda mujassam ekanligini, *zerikarli* gapida subyekt zerikarlilik haqidagi tasavvur, predikat esa uning mavjudligi haqida tasavvur ekanligi; *iltimos qilaman* gapida I shaxs haqidagi tasavvur – subyekt, uning harakati – predikat ekanligini ko`rsatadi.

Natijada akademik A.A.Shaxmatov tilshunoslik tarixida ilk marotaba bir sostavli gaplar nazariyasini ishlab chiqdi.

Ko`rinadiki, bir sostavli gaplar nazariyasi ham predikativlikning ikki a`zoli ekanligini e`tirof etuvchi konsepsiyaning mantiqiy davomi sifatida maydonga keldi.

N.Y.Shvedova predikativlik har bir gapda mavjud bo`lishini va u gapning grammatik ma`nosi ekanligini ta`kidlaydi.

Psixologik oqim vakillari predikativlikning ifodalanishini shaxsli fe`l bilan chambarchas bog`liq holda o`rganib, uning grammatik aspektiga aniqlik kiritdilar. Bu konsepsiya vakillari har qanday shaxsli fe`lga gapni belgilashdagi asosiy moment sifatida qaradilar.

Mashhur rus tilshunosi A.A.Potebnya ham G`arbiy Yevropa lingvistlari va faylasuflari ishlariga tayanib, har qanday fe`l mazmunida shaxs ma`nosi ham ifodalanishini aytadi.<sup>5</sup> Shuning uchun u har qanday shaxsli fe`lni minimal gap hisoblaydi. Shunday qilib, sintaktik nazariyada verbsentrik nazariyaning maydonga kelishiga zamin yaratildi. Bu yo`nalish ayniqsa A.M.Peshkovskiy asarida yorqin namoyon bo`ldi. U gapning xarakterli belgisi “kesimlik” ekanini

⁴ Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. – Л., 1941. – С. 29.

⁵ Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. – Харьков. 1978. – С.78.

ta'kidlagan holda, uning grammatik kategoriya ekanini, kategoriya bo'lganda ham gap uchun eng muhim kategoriya ekanini, unda nutq bilan fikr qorishib ketishini, kesimlik fe'llik asosida qurilishini aytadi.⁶

Bu bilan predikativlik nazariyasida ikki a'zoli predikativ strukturadan bir a'zoli predikativ strukturaga o'tishga poydevor yaratildi.

An'anaviy tilshunoslikdagi gap bo'laklari va ularni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratildi, kuzatiladigan xilma-xillik bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratishning obyektiv kriteriylaridan kelib chiqdi. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning differensial belgisi ularning predikativ asosga kirish-kirmasligi hisoblanadi. Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratishning har xilligi, birinchi navbatda, tilshunoslikdagi turli yo'nalishlarda predikativ asosni xilma-xil tushunish bilan bog'liqdir.

An'anaviy tilshunoslikda mantiqdagi hukm tuzilishiga gap orqali ifodalangan predikativlik tuzilishini izomorf holda tushunish natijasida ega bilan kesim gapning struktur asosi, predikativ markazi deb qaraladi.

Xususan, "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kitobida quyidagicha fikr bayon qilinadi: "Gapning asosini bosh bo'laklar tashkil etadi. Bosh bo'laklar ega va kesimdan iboratdir. Bu xil bo'laklarning ma'nosini ochish, to'ldirish, konkretlashtirish uchun ikkinchi darajali bo'laklar (to'ldiruvchi, hol va aniqlovchi) qo'llanadi. Ikkinchi darajali bo'laklar ega yoki kesimga bog'lanadi. Ba'zan bu bo'laklar o'zaro bir-biriga bog'lanadi, ba'zan esa butun gapga oid bo'ladi. Masalan, *Ey azizam, ijodingdan hammaning ko'ngli shod, dilida zavq.*"

A.G'ulomov gapning xarakterli belgisi predikativlik ekanini e'tirof etar ekan, quyidagilarni yozadi: "Gapning xarakterli belgilaridan biri predikativlikdir. Har bir gapning real borliq haqida biror xabar bayon qilishi, shuni ifodalashi gap mundarijasining voqelik bilan bog'liq ekanligini, aloqadorligini ko'rsatadi. Bu hodisa – gap nutq mundarijasining real voqelik bilan aloqadorlik hodisasi predikatsiya sanaladi."⁷ U predikativlik modallik, zamon, shaxs-son kategoriyalari

⁶ Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М., 1938. – С. 172.

⁷ Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 1965. – Б.41.

bilan bog`liq, shularni o`z ichiga olishini ta`kidlash bilan birga, bu kategoriyaning asosan ega va kesimning predikativ aloqasi orqali ifodalanishi, lekin predikativlik ega bilan kesim munosabati bilan cheklanmasligini bayon qiladi.

Muallifning fikricha, gapni shakllantiruvchi, gapning asosi bo`lgan predikativlik hodisasi odatda so`zlarning predikativ qo`shilishi bilan ifodalanadi, lekin bu narsa, tabiiy, bir so`zdan iborat bo`lgan gaplarda ham mavjuddir. (*Qor! Zilzila!* kabi): predikatsiya gapga butunicha xos bo`ladi. Bir so`zdan iborat gaplardan konkret gap bo`lagini topib bo`lmaydi.⁸

A.G`ulomov gapning bir butun struktura ekanini e`tirof etadi va uning tarkibiy qismlari sifatida gap bo`laklarini ko`rsatadi. Gap bo`laklari bilan so`z turkumlari o`rtasida ma`lum bog`lanish bayon qiladi. Mustaqil so`zlar gap tarkibida ma`lum gap bo`lagi vazifasini bajaradi. Lekin har qanday mustaqil so`z gap tarkibida doimo gap bo`lagi bo`lib kela bermasligini ta`kidlaydi. Ayrim mustaqil so`zlar gapda gap bo`lagi vazifasini bajaradi. Lekin har qanday mustaqil so`z gap tarkibida doimo gap bo`lagi bo`lib kela bermasligini ta`kidlaydi. Ayrim mustaqil gapda gap bo`lagi vazifasini bajarmasligi ham mumkinligi ko`rsatiladi. Har bir mustaqil so`z gap bo`lagi bo`lishi uchun sintaktik aloqaga kirishishi, tobe munosabatda bo`lishi, sintaktik aloqa zanjirida tobe vaziyatda turishi zarurligi bayon qilinadi. Bu haqda muallif quyidagilarni yozadi: “Gap bo`laklari sintaktik kategoriya bo`lib, gapning sostavidagi elementlarning o`zaro munosabatini, bu munosabatning xarakterini, gapning grammatik jihatdan qanday bo`laklarga ajralishini, so`zning gapdagi ro`lini ko`rsatadi. Demak, bunday grammatik munosabatda gap bo`laklarining aloqasini, bog`lanishini ko`ramiz.”⁹ Demak, grammatik aloqaga kirishmagan, tobe vaziyatda turmagan mustaqil so`zlar gap bo`lagi hisoblanmaydi.

Gap bo`laklari gap hosil qilishdagi rollariga qarab ikki guruhga – bosh va ikkinchi darajali bo`laklarga bo`linadi.

⁸ Гуломов А., Асқарова М. Ўша асар, 42 – б.

⁹ Гуломов А., Асқарова М. Ўша асар, 47 - б.

A.G`ulomov fikricha, ega va kesim bosh bo`laklar sanalib, ular gapning ikki uyushtiruvchi markazi mavqeida bo`ladi va predikativ aloqa orqali bir-biri bilan bog`langan bo`ladi. Bu predikativ yadro, konstruktiv markaz ikki sostavli gapning asosi sanaladi. Bosh bo`laklar fikrning asosini, gapning asosiy mundarijasini ifodalaydi.

Tilshunoslik tarixida ham gap va uning bo`laklarga bo`linishi haqida turli xil qarashlar maydonga kelgan. Shunday bo`lishiga qaramasdan ularning deyarli barchasida gapning muhim belgisi sifatida predikativlik e`tirof etiladi. Predikativ ma`no ifodalovchi har qanday sintaktik shakl gap hisoblanadi.

Lekin predikativlik nima, uning tarkibiy qismlari nimalardan iborat, degan savolga javob berishda turli oqimlar maydonga keldi. Antik davrdan boshlab atributiv mantiq ta`sirida vujudga kelgan an`anaviy sintaktik nazariyada predikativlik deganda kesimning ega bilan munosabati, shaxs va sonda moslashuvi tushuniladi. Xususan, prof M.I.Steblin-Kamenskiy predikativlik haqida quyidagilarni yozadi: “Bu mazmuniga ko`ra mantiqdagi subyekt va predikat o`rtasidagi munosabatning o`zidir”¹⁰.

Bunga ko`ra, har bir gap ma`lum bir hukmni ifodalaydi. Predikatsiya hodisasi faqat gap asosinigina emas, balki hukm asosini ham tashkil etadi. Atributiv mantiq hukm tuzilishining ikki a`zoliligini, subyekt va predikat o`rtasidagi munosabatdan tashkil topishini e`tirof etadi. Shunday mantiq asosida shakllangan sintaktik nazariya ham hukm tuzilishga qiyosan gapning asosiy tuzilish birliklari (konstruktiv birliklar) sifatida ega va kesimni tan oladilar.

Natijada bosh bo`laklardan biri qatnashmagan gaplar gap doirasiga sig`may qoldi. Mazkur kamchilikni sezgan A.A.Shaxmatov yuqoridagidek mantiqiy sxemadan qochishga urindi. G`arbiy Yevropa tilshunosligida maydonga kelgan psixologik kommunikatsiya ta`limotini qo`llab-quvvatladi va rivojlantirdi. U predikativlikni predikativ munosabat hisoblagani holda, psixologik subyekt bilan

¹⁰ Стеблин-Каменский М. И. О предикативности // Спорное в языкознание. – Л., 1974. – С. 44.

psixologik predikat o`zaro bog`lanib, predikativ munosabatni hosil qilishini bayon qiladi¹¹.

Bu konsepsiya gapning muhim belgisi predikativlik ekanini, predikativlik ikki a`zodan iboratligini tan olsa ham, lekin mantiqiy predikativlik bilan grammatik predikativlikni farqlaydi. Mantiqiy hukm tuzilishi bilan grammatik predikativlik tuzilishi o`rtasida nomutanosiblik bo`lishi mumkinligi, *zerikarli* tipidagi gaplarda psixologik subyekt bilan psixologik predikat bir a`zoda mujassamligini ta`kidlaydi. Natijada A.A.Shaxmatov bir sostavli gaplar nazariyasiga asos soldi.

Predikativlikni tashuvchi muhim bo`lak kesim sanaladi. Shuning uchun gapda ko`p hollarda ega tushib qolishi mumkinligi, lekin kesimning hech qachon tushib qolmasligi, kesimsiz gap bo`lmasligi bayon etiladi. Potebnyaning bu fikri bugungi kunda ham dolzarbligini yo`qotgani yo`q. Bu g`oya hozirgi o`zbek tilshunoslari tomonidan o`zbek tili materiallari asosida rivojlantirilmoqda. Kesim uchun xoslangan eng muhim so`z turkumi tuslangan fe`l, ya`ni verbum finitum ekanligi, shuning uchun uning o`zi ham eng kichik gap hisoblanishini, fe`lning aniqlanishi minimum gapning aniqlanishi, boshqa barcha so`z turkumlari va gap bo`laklari unga bo`lgan munosabatlariga ko`ra belgilanishi bayon qilinadi.

A.M.Peshkovskiy ham gapning xarakterli belgisi “kesimlik” ekanini, kesimlik esa fe`llik asosiga qurilishini ta`kidlaydi¹².

Shunday bo`lishiga qaramasdan, jahon tilshunosligida kesim gapning tuzilish markazi ekanini olg`a suruvchi sintaktik nazariyaning asoschisi sifatida L.Ten`er e`tirof etildi. Chunki u bu g`oyani lingvistik konsepsiya darajasiga ko`tardi.

Saksoninchi yillardan bu g`oya o`zbek tilshunosligiga ham ta`sir etdi<sup>13</sup>. Gapning mazmuniy va tuzilish markazi sifatida ega bilan kesimni e`tirof etuvchi

¹¹ Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. – Л., 1941. – С. 29.

¹² Пешковский А. М. Русский синтаксис в научном освещении. – М., 1938.

¹³ Нурманов А. Проблемы системного исследования синтаксиса узбекского языка. – Ташкент, 1982; Нигматов Х. Г. и др. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков // СТ, Баку, 1984, № 5.

nazariyadan kesimni e'tirof etuvchi nazariyaga, atributiv paradigmadan verbosentrik paradigmaga o'tish an'anaviy sintaksisda hukm surgan gap qurilishi bilan bog'liq bir qator tushunchalarga o'zgartirish kiritishni talab etishi tabiiy bir hol.

Avvalo, gap va uning mohiyati, gap bo'lagi va uning mohiyatini belgilab olish zaruriyati tug'iladi.

Gapning boshqa sintaktik hodisalardan farqlab turuvchi muhim farqlovchi belgisi predikativlikdir. Ana shu belgining mavjudligi bilan gap so'z birikmasiga zidlanadi.

Predikativlik shakllari kesimga qo'shilishi, shuning uchun kesimsiz gap bo'lmasligi, kesim gap bo'lagi emas, gapning o'zi, gapning yadrosi, eng kichik gap (Yurchenko V.S) ekanligi ta'kidlanadi.

Gapning har qanday tavsifi: ifoda maqsadiga ko'ra turi, tasdiq-inkorlikka ko'ra turi, yig'iq-yoyiqlikka ko'ra turi, sodda-qo'shmalikka ko'ra turi va boshqalar kesimga qarab belgilanadi.

Demak, gapning eng muhim belgisi predikativlik ekan, ana shu ma'noni ifodalovchi birlik kesim sanaladi. Kesim predikativ ma'no va shaklga ega bo'lgan eng kichik birlik sifatida gap bo'lagi emas, gapning o'zidir.

Predikativlikni kesim ko'rsatadi. Kesim umumiy predikativlik ma'nosini konkret modallik, zamon, shaxs kategoriyalari orqali ifodalaydi. Predikativlikni shakllantirishda intonatsiyaning ham ishtiroki bor: intonatsiya gapga xos bo'lgan universal vositadir. Anglashiladiki, predikativlikni ifodalash gapning paradigmasi predikativlikni bildiruvchi butun formalar sistemasi bilan bog'liq.

Gap fikrni ifodalaydi, ma'lum maqsadni bayon qiladi. Bu hodisa, birinchidan, shu gapdagi fikrning borliqqa munosabati, ikkinchidan, so'zlovchining subyektiv munosabati modallik (reallik, gumon, taxmin, istak kabilar) bilan, zamon va shaxs bilan bog'lanadi. Masalan: *Biz rejani bajardik* gapini olaylik. Bu misol shu gapdan anglashilgan fikrning voqelikka mos kelishini ifodalaydi – so'zlovchi bu fakti real deb biladi (modallik), bu narsa zamon (yuqoridagi misolda o'tgan zamon) va shaxs (birinchi shaxs) kategoriyalari bilan

ifodalangan. *Ertaga, balki, yomg'ir yog'ar* misolida hodisa taxmin tusida bayon qilingan, bundagi zamon va shaxs-son kategoriyalari bilan bog'liq.

Shaxs ko'rsatuvchi fe'llar (shaxsli fe'llar – sof fe'llar) o'z tabiatiga ko'ra modallik, zamon va shaxs kategoriyalari bilan zich bog'liq bo'lganligi uchun ularning eng birinchi funksiyasi predikatsiyani ifodalashdan iborat. Fe'ning bu formasi fikrning voqelik bilan aloqadorligini, shu bog'liqligini ko'rsatadi. Masalan: *Biz cho'mildik*. (faktning real ekanligi, o'tgan zamon, birinchi shaxs). *Sen ertaga biz bilan kinoga borsang* (iltimos-istak, kelasi zamon, uchinchi shaxs) va boshqalar. Lekin predikatsiya (voqelik haqidagi xabar, shunga munosabat, shunga taalluqlilik) doim fe'l formalari bilan ifodalanishi shart emas. Predikativlik – kesimlik (predikatsiyaning ifodasi) har xil yo'llar bilan bildiriladi, uning ifodasi uchun gapda fe'l bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, *Otam –maktabda o'qituvchi*. *U baquvvat* kabi. Umuman, kesimning ifodalanishi fe'l bilan cheklanmaydi, bu hodisa fe'l tushunchasiga nisbatan kengdir.

Predikatsiyada modallik asosiy o'rin tutadi. Modallik – gap mundarijasining davoqelikka munosabati, aytilayotgan fikrning real holatga munosabati (tasdiq-inkor, mumkinlik, taxmin, shubha kabilar).

Modallik umuman voqelikka bo'lgan munosabatni konkretlashtiradi, gap mundarijasining obektiv borliqqa munosabatini so'zlovchi tomonidan belgilangan munosabatni ifodalaydi.

Modallik turli vositalar orqali ifodalanadi:

1. Fe'ning mayl ko'rsatuvchi formalari orqali. Misollar: *Bir yil tut ekan kishi yuz yil gavhar teradi*. Vazirlar: “*Bizdan maslahat chiqmaydi*”, – deb javob beribdilar. Orzuyim katta: “*temir yo'l injeneri bo'lib chiqsam*”.

Aniqlik maylida reallik qat'iy tusda beriladi. (*bordi, boradi, bormadi, bormaydi* kabi), bu mayldagi fe'l odatda kesim funksiyasida keladi. Buyruq maylidagi fe'llar ham shunday (*yugur, yugurma* kabi). Bu formadagi fe'l o'rniga qarab iltimos, yalinish kabi ottenkalarga ham ega bo'ladi. Shart mayli formasidagi fe'llar (bular odatda, kesim vazifasida keladi):

a) mustaqil sodda gapning kesimi bo`lib kelganda, tilak-istak, iltimos kabilarni bildiradi. Misollar: *Menga jurnalni bersang. Bugun bir kinoga borsam;*
b) ergash gapni kesimi bo`lib kelganda shartni yo paytni (ba`zan, ayrim hollardagina) bildirishga yordam beradi. Misollar: *Paxta terish mashinalaridan unumli foydalansak, rejaning bajarilishi ancha tezlashadi. Qizcha oynadan qarasa, mayda yomg`ir shivirlab yog`ayotgan ekan.*

Modallik, fikrning reallik-noreallik nuqtai nazaridan baholanishi ikki xil bo`ladi:

1. Obyektiv modallik: aytilayotgan fikrning, xabarning obyektiv borliqqa munosabati. Masalan: *Ko`m-ko`k o`tlar tongning mayin shamoli bilan sekin-sekin silkinmoqda. Bugun havo sovuq emas.* a) real modallik: aytilayotgan fikrning voqelikka mos kelmasligi. Masalan: istak ma`nosi: *Bugun qor yog`sa edi.*

2. Subyektiv modallik: so`zlovchining – subyektning aytilayotgan fikrga munosabati (ishonish-ishonmaslik, taxmin va shu kabilar. Bu ma`nolar kirish so`z, kirish konstruksiyalar bilan ifodalanadi), Masalan, *Reja, albatta, muddatidan ilgari bajariladi. Talabalar ilmiy konferensiyasi ertaga boshlansa kerak.* Modallikning nutqqa harakatdagi tilga xos ekanligi gapda ifodalanayotgan fikrning uch zamondan biriga tegishli bo`lishini ko`rsatadi.

Har bir gapda ifodalangan fikr, shubhasiz, zamon ma`nosini (aytilayotgan fikrning nutq momentiga bo`lgan munosabati) bilan ham bog`liq bo`ladi. Misollar: *U talaba edi. U talaba. Bu yil talaba bo`ldi.*

Zamon ma`nosi gapda turli yo`llar bilan ifodalanadi: fe`lning zamon ko`rsatadigan maxsus formolari orqali (*Bola o`qidi.U aytgan*), payt ma`nosini ifodalovchi so`zlar, payt ravishlari orqali (*U ertaga shu kitobni o`qiydi. Chog`ishtiring: U uch yildan beri institutda o`qiydi*), bog`lama orqali (*Opam talaba edi*) va b.

Har bir gapda zamonni bildiradigan yuqoridagi kabi vositalar bo`lishi shart emas, lekin har bir gapda zamon ma`nosi berilgan bo`ladi. Masalan: *Otam – shifokor* gapida zamonni ko`rsatadigan maxsus grammatik element bo`lmasa ham,

lekin unda zamon bor: hozirgi zamon (hozirgi zamon ma'nosi ifodalanganda bog'lanma qo'llanmaydi). Demak, zamon ma'nosining berilishi uchun gapda fe'l bo'lishi shart emas, fe'lsiz gapda ham zamon bor (hozirgi zamon). Ba'zan umumzamon ma'nosi ifodalanadi. Umumzamon hozirgi zamonga to'g'ri keladi. Misollar: *Qush qanoti bilan uchadi. Paxta kuzda ochiladi. Do'lana tog'da o'sadi. Bola g'ayratli. Akam muhandis kabi.*

Bahor! Yoshlik! Tinchlik! kabi bir so'zli gaplardan ham zamon anglashiladi. Bunda zamon ma'nosi kontekstdan, situasiyadan bilinib turadi (koitextual ifodalanish). Bularning ayrim so'zlikdan gapga ko'chganligining o'ziyoq ularda zamonning borligini bildiradi.

Gapdagi mundarijaning voqelikka munosabatini ko'rsatishda, modallik va zamon kategoriyalari bilan birga shaxs kategoriyasi ham qatnashadi. Gapda shaxsga munosabat ham ifodalanadi. Misollar: *Sen bording. Biz o'qidik.* So'zlovchi gap orqali fikrni ifodalaydi, bu fikrni tinglovchi qabul qiladi, uqadi. Shuning o'zi ham ko'rsatadiki, shaxs kategoriyasi gapdagi organik – ajralmas, zarur kategoriyadir. Shaxs kategoriyasi modallik va zamon kategoriyalari bilan zich aloqada bo'lib, u turlicha ifodalanadi. Shaxs kategoriyasi tabiiy son kategoriyasi bilan bog'liqdir. Har bir shaxsda son bor (birlik, ko'plik). Masalan: *Men bordim. (I shaxs birlik). – Biz bordik. (I shaxs ko'plik).*

Shaxs-son kategoriyasi kesimdagi affikslar orqali ifodalanadi. Ayrim hollarda u maxsus morfologik ko'rsatkichga ega bo'lmaydi, so'zning semantik-grammatik xususiyatidan boshqa so'zlar bilan bog'lanishidan kontekstdan bilinib turadi. Shaxs ma'nosi ham umumlashgan bo'lishi mumkin. Misollar: *Ishlasang, tishlaysan. Jo'jani kuzda sanaydilar.*

Gapning eng muhim belgisi predikat ekan, ana shu ma'noni ifodalovchi eng kichik birlik gap sanaladi. Kesim predikativ ma'no va predikativ shaklga ega bo'lgan eng kichik birlik sifatida gapning bo'lagi emas, balki gapning o'zidir.

Kesimning gap bo'lagi emas, balki eng kichik gap ekanligi quyidagi asoslar bilan belgilanadi:

– birinchidan, shu kungacha gap bo`lagi tobe munosabatda bo`lgan ikki sintaktik birlikning tobe vaziyatda turgan qismiga nisbatan belgilangan. Birikma doirasida tobe qismning sintaktik funksiyasi doimo aniq, hokim qismniki esa noaniq, uning sintaktik funksiyasi sintagmatik zanjirning keyingi halqasida boshqa uzvga tobe vaziyatda bo`lganda aniq bo`ladi. Bu nuqtai nazardan, kesim sintagmatik munosabatda tobe pozitsiya orqali belgilanmaydi, chunki u hech qachon tobe pozitsiyada turmaydi. Kesim boshqalarga nisbatanlanmagan holda predikativ shaklni olgan sintaktik birlik sifatida aniq belgilanadi;

– ikkinchidan, gap va uning bo`lagi tushunchasidan kelib chiqilsa, birinchisi butunni, ikkinchisi esa uning qismini bildiradi. Masalaga ana shu nuqtai nazardan yondashilsa, ega, to`ldiruvchi, hol singari sintaktik birliklar eng kichik gapning kengaytiruvchilari sifatida uning qismlari sanaladi. Kesim esa bu bo`laklar bilan kengayish imkoniyatiga ega bo`lgan eng kichik gapdir.

Bugungi kunda predikativlikni predikatning subyekt bilan munosabati sifatida emas, balki predikatdan anglashilgan mazmunning obyektiv voqelikka munosabati sifatida tushunish, kesimni gapning tuzilish asosi, eng kichik gap sifatida e`tirof etish sodda gaplarning sintaktik tuzilishi bo`yicha fikr yuritilib kelingan.

Har qanday gap predikat va uning argumentlari munosabatining grammatik jihatdan predikativ shaklda ifodalanishi ekan, shu gapni tashkil etgan sintaktik elementlar o`rtasidagi sintaktik munosabatlarni ham predikat asosida izohlash kerak bo`ladi. Uni quyidagicha ko`rsatish mumkin:

I. Predikat va uning aktantlari munosabati:

a) subyekt-predikat munosabati yoki subyektli munosabat (moslashuv yo`li bilan);

b) obyekt-predikat munosabati yoki obyektiv munosabat (boshqaruv yo`li bilan).

II. Predikat va erkin kengaytiruvchilar munosabati: Holat-predikat munosabati yoki relyativ munosabat (boshqaruv va bitishuv yo`li bilan).

M. Mirtojiyev “Mantiqiy predikatning sodda gapda ifodalanishi” boʻyicha oʻz fikrlarini bildirgan. Mantiqiy predikat haqida adabiyotlarda turlicha izoh berilgan boʻlsa ham, ularning mohiyati oʻzaro oʻxshash. Ayrim adabiyotlarda u “Subyekt haqida bayon qilingan hukm mulohaza”¹⁴, – deb taʼriflangan boʻlsa, ayrim adabiyotlarda “Predikat fikrlangan narsaning ayrim xususiyatlarini aks ettiradi”, – deb koʻrsatiladi. Baʼzilardagi taʼriflar koʻrsatilgan gap qurilishiga nisbatan farq qilishi mumkin, lekin gap mazmunida farq sezilmaydi. Adabiyotlarda grammatik kesimga berilgan taʼriflar ham undan mohiyatan uncha farq qilmaydi. A.Gʻ.Gʻulomov grammatik kesim haqida: “Kesimda belgi hukm-tasdiq yo inkor tariqasida predikativ aloqa yoʻli bilan ifodalanadi”¹⁵, – deydi. Koʻrinadiki, predikat subyektning, kesim eganing belgi-xususiyatini bildirishi jihatidan oʻzaro oʻxshashlikka ega. Lekin adabiyotlarda modal soʻzlar ham gap kesimi boʻlib kelishi tilga olinadi¹⁶. Modal soʻzlar haqida N.E.Petrov “Maʼlum denotativ semantikaga ega boʻlmaydi”¹⁷, – deb qayd etgan. Haqiqatda ham, yana oʻzi uqtirganiday uning semantikasi modallik ifoda etuvchi grammatik maʼno bilan qoʻshilib ketadi. Kesim haqida gapirganda uning mana shunday tushuncha bermaydigan soʻzlar bilan ifodalanishini ham eʼtibordan qochirmaslik zarur. Bunday kesimlar oʻz-oʻzidan mantiqiy predikatning ifoda talabiga javob bermaydi. Bunday hollarda gapdagi modal soʻz bilan ifodalangan kesim egasi kesim bildiruvchi soʻz, koʻproq harakat nomi boʻlsa, u bilan birga mantiqiy predikat maqomida turadi.

Mantiqiy predikat bilan kesimning, yuqorida koʻrsatilganiday, mos kelmasligi gaplarning boʻlaklanishida ham nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Masalan, *Uning kelishi kerak* gapi grammatik jihatdan qaratqichli aniqlovchi, ega va kesimdan iborat. Uning kelishi kerak modal soʻzida ifodalangan. *Kerak* modal soʻzi predikat ifodalanishi uchun talab qilinadigan hukm, mulohaza, xususiyatni ham bildirmaydi. U grammatik maʼnoga qoʻshilib ketadigan modallikni bildiradi. Shuning uchun ham yuqoridagi gap, mantiqiy nuqtai nazardan yondashilsa,

¹⁴ Виноградов С.Н., Кузмин А.Ф. Логика. – Тошкент, 1994. – Б. 59.

¹⁵ Gʻulomov A. Sodda gap. – Toshkent, 1995. – В. 49.

¹⁶ Ахмедов А.А. Кесим. // Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент, 1976. – Б. 134.

¹⁷ Петров Н.Е. О содержании и объеме языковой модальности. Новосибирск, 1982. – С. 51.

predikati kelishi kerak deb olinib, uning soʻzi subyekt boʻladi. Shunda predikat subyekt haqidagi hukmni bildiradi. Tahlil shuni koʻrsatadiki, yuqoridagi gapning mantiqiy predikati grammatik jihatdan ega va kesim bogʻlanishi orqali ifodalangan sodda yigʻiq gapga teng kelgan.

Kesimi mavjudlik bildiruvchi *bor* va *yoʻq* soʻzlaridan iborat gaplar ham boʻlaklarga ajratilganda semantik-sintaktik nomutanosiblik kuzatiladi. Shuning uchun boʻlsa kerak, bu *bor* va *yoʻq* soʻzlarini ayrim adabiyot va darsliklarda modal soʻzlar qatorida qayd etilgan¹⁸. F.A. Xayitmetov xatto “kesim *bor* yoki *yoʻq* soʻzlari boʻlsa, uning mavjudlik xabari gapda ahamiyat kasb etmaydi”¹⁹, – degan fikrni aytadi. Bu fikr mantiq shundan iboratki, mazkur soʻzlardan holi holatda ham gap xabar maʼnosini beradi, ular faqat oʻsha maʼnoni taʼkidlash uchun xizmat qiladi. F.A.Xayitmetov bu xulosani maʼqullovchi yana bir fikrni ilova qilgan. Yaʼni: “Bunday mavjudlik bildiruvchi soʻz bogʻlama kabi tasdiq ifodalash bilan chegaralanadi” – deydi. Masalan, *Eshakning ishq* *yoʻq* maqolida sintaktik nuqtai nazardan *eshakning* soʻzi qaratqichli aniqllovchi, *ishq* soʻzi ega, *yoʻq* soʻzi kesim boʻladi. Mantiq nuqtai nazaridan esa *eshakning* soʻzida esa subyekt, *ishq* *yoʻq* qoʻshilmasida mantiqiy predikat ifodalangan. Chunki *ishq* soʻzi xabar bildirib, *yoʻq* soʻzida uning inkori berilgan. Mantiqiy predikat kesimi *yoʻq* soʻzi boʻlgan soda gapda oʻz ifodasini topgan.

Qaratqichli aniqllovchida ifodalangan subyekt hamma vaqt ham eksplitsit qayd etilavermaydi. Uning implitsit berilishi ham kuzatiladi. Masalan, *Ishqi borning zavqi bor* maqolida ham *zavqi bor* ega kesim qoʻshilmasida mantiqiy predikat ifodalangan. Uning subyeksi ham *borning* qaratqichli aniqllovchisida berilgan. *Borning* qaratqichli aniqllovchisida subekt eksplitsit emas, implitsit qayd etilgan. *Bor* soʻzi implitsit holatda “shaxs” bildiruvchi *kishi* soʻzini ifodalagan.

Gap kesimi *bor* yoki *yoʻq* soʻzi bilan ifodalanganda uning egasi egalik qoʻshimchasiz ifoda topishi mumkin. Bunday ega va kesim qoʻshilmasi gapning mantiqiy predikati boʻlib kelsa, shu gapdagi oʻrin holi mantiqiy predikat subyektini

¹⁸ Аҳмедов А.А. Кесим. 134-бет; Асқарова М., Қосимова К., Жамолхонов Х. Ўзбек тили. – Тошкент. 1979. 143-бет.

¹⁹ Хайитметов Ф.А. Алишер Навоий ғазаллари қофиясида мантиқ урғусининг берилиши. НДА. – Тошкент. 1998, 16-бет.

bildiradi. Masalan, *Tinchlik bor joyda baraka bor* maqolida sintaktik jihatdan *Baraka bor* ega va kesim qo`shilmasidir. Undagi *joyda* so`zi o`rin holi hisoblanadi. Mantiq nuqtai nazaridan ega va kesim qo`shilmasi bo`lgan vafosi bo`lmas mantiqiy predikat, qaratqichli aniqlovchi uning subyektidir. Ko`rinadiki, bunday tarkibli gaplarda ham sodda yig`iq gap mantiqiy predikatni ifoda etadi. *Bo`lmas* fe`li xuddi *yo`q* so`zi kabi predikat tarkibida undan anglashilgan belgining inkor etuvchi shakli vazifasini o`tagan. Agar bo`l fe`li bo`lishli shaklda bo`lganda edi, predikatdan anglashilgan belgining tasdig`ini bildiradi.

Sodda gap qolipli frazeologizmlarning qaratqich bilan qo`llangan holati ham gapdagi bo`laklanishda semantik-sintaktik nomutanosiblikni yuzaga keltiradi. Unda ham mantiqiy predikatning sodda gap bilan ifodalanishi kuzatiladi. Masalan, *Xotinining kapalagi uchdi* gapidagi *kapalagi uchdi* sodda gap qolipli frazeologizmdir. U qaratqichli aniqlovchi bilan qo`llangan. Shundan kelib chiqib, unga sintaktik nuqtai nazardan yondashilsa, u qaratqichli aniqlovchisi bo`lgan ega va kesimdan iborat gapdir. Gapga mantiqiy nuqtai nazardan yondashilsa, *kapalagi uchdi* frazeologik fe`l bilan ifodalangan predikat va qaratqichli aniqlovchi subyekt bo`ladi. Chunki frazeologizm semantik butunlikka ega predikat hisoblanadi.

L.Ten`erning sintaktik konsepsiyasida gap markazi fe`l hisoblanganligi uchun bu yo`nalish jahon tilshunosligida verbosentrizm (lot. verbun “fe`l”) nomi bilan ham yuritiladi.

Predikativlikka mantiqiy yondashuvga, ega va kesim munosabati sifatida qarashga V.V.Vinogradov ham tanqidiy yondashdi. Bu hodisani faqat gap bo`laklari o`rtasidagi aloqa bilan bog`liq emasligini, u bo`laklarga bo`linmaydigan *Jim! Issiq!* tipidagi gaplarda ham mavjudligini, bunday gaplarda predikativlik modallik, zamon va shaxs sintaktik kategoriyalari orqali ifodalanishini bayon qiladi²⁰.

²⁰ Грамматика русского языка. – М., 1954, т. 2, ч. I. – С.87.

I.Sizov dunyoning turli tillaridagi konkret gap tiplarini tahlil qilar ekan, ega bilan kesim gaplarning zaruriy belgisi degan tezisning unchalik to'g'ri emasligini aytadi²¹.

A.A.Xolodovich predikativlik belgisiga ko'ra faqat kesim gap tarkibida yetakchi o'rin egallashini, gapning boshqa bo'laklari kesimning aktanti va sironstanti sifatida funksiyalashishini ko'rsatadi²². Xuddi shunday fikr T.P.Lomtev tomonidan ham bayon qilinadi²³.

Aktant va sironstantlarni belgilashda gapning struktur markazi sanaluvchi predikatlarning (fe'l yoki ot predikat) valentligiga asoslandi. Shunday qilib, gapning struktur birliklarining rollari predikat valentligining to'ldirishiga qarab belgilandi. Agar gapda ishtirok etgan barcha mustaqil so'zlarni shu gapning bo'laklari deb hisoblasak, u vaqtda kesimlik shaklidagi predikat gapning struktur markazi sifatida uning yadrosini tashkil qiladi. Undan boshqa uzvlar kesim shaklidagi predikatning valentligiga yoki predikat aktantlarining valentligini to'ldirishiga ko'ra turli rollarga bo'linadi.

L. Ten'erning fikricha, aktantlar predikat orqali ifodalangan jarayonida ishtirok etuvchi shaxs yoki predikatlardir. Ular, odamda otlar orqali ifodalanib, bevosita fe'llarga tobelanadi. Fe'llar turli miqdordagi aktantlarga ega bo'ladi. Aktantsiz fe'llarning bo'lishi bilan birga, bir ikki va uch aktantli fe'llar ham mavjuddir.

Agar gapning struktur markazi hisoblangan predikat (ko'proq fe'l predikat)ning valentligini to'ldiruvchi aktantlar va sironstantlar (funktional jihatdan hollar) asosida gapni tashkil etuvchi uzvlarni belgilasak, gap strukturasi gap bo'laklari rukni orqali o'rganishda butun tashqarisida istisno tarzida qolayotgan undalma va kirishlarni ham butunning uzvi sifatida e'tirof etish mumkin bo'ladi.

Funktional jihatdan undalma vazifasini bajaruvchi otlar ko'pincha fe'l orqali ifodalangan harakat-holat qaratilgan shaxs yoki predmetni bildiradi.

²¹ Сизов И. А. Что такое синтаксис? – М., 1966. – С.29.

²² Холодович А. А. К вопросу о доминанте предложения // Проблемы грамматической теории. – Л., 1979. – С.298.

²³ Ломтев Т.П. Структура предложения в современном русском языке, – М., 1979. – С.56.

Masalan, *kel* fe'li II shaxs aktanti (*sen*) va lokal sirkonstanti (*maktabga*) bilan kengayish imkoniyatidan tashqari, kelish harakatiga da'vat etiluvchi, fikr yo'naltirilgan subyekt (*Karim*) ma'nosini bildiruvchi aktant uchun ham bo'sh o'ringa ega. Bu o'rinlarning to'ldirilishi gapni yoyiq tusga kiritadi. Yoyiq gapda har bir kengaytiruvchi gapning yadrosi hisoblangan predikativlik shaklidagi predikat bilan ma'lum mazmuniy munosabatda bo'ladi va muayyan sintaktik pozitsiyani egallaydi. Sintaktik pozitsiya aktant va sirkonstantlarning sintaktik shakli orqali belgilanadi. Masalan, predikat orqali ifodalangan harakat bajaruvchisini ifodalovchi bosh kelishikdagi aktant sintaktik jihatdan ega pozitsiyasida, harakatni o'ziga qabul qilgan tushum kelishigidagi aktant vositasiz to'ldiruvchi pozitsiyasida, harakatga vosita bo'lgan vosita kelishik shaklidagi yoki ko'makchilar bilan kelgan aktant vositali to'ldiruvchi pozitsiyasida, harakatning o'rni, sababi, maqsadi, paytini ifodalab, vosita kelishiklari va ko'makchilari bilan kelgan sirkonstantlar sintaktik hol pozitsiyasida keladi.

Shunday ekan, tinglovchi subyekt ham predikat aktanti bo'lib kelishi mumkin. Bu aktant predikat orqali ifodalangan harakat qaratilgan subyekt (shaxs yoki narsa)ni bildiradi va bosh kelishik shaklida kelib, sintaktik jihatidan undalma pozitsiyasida keladi.

Shuningdek, kirishlar predikat orqali ifodalangan harakat-holatga so'zlovchining modal munosabatini ifodalaydi. Demak, bu sintaktik birlik ham predikat bilan bevosita munosabatga kirishadi. Predikat ifodalagan denotativ ma'no ustiga modal ma'no qo'shiladi.

Shunday qilib, gapda ishtirok etadigan barcha uzvlar butunning qismi sifatida ma'lum vazifa bajaradi. Vazifadan holi bo'lgan a'zo gap tuzilishi uchun ortiqcha, keraksiz bo'lib qoladi.

Predikativlikni ifoda etuvchi vositalar, uning tarkibiy elementlari haqida ham turlicha qarashlar bor. Akademik V.V.Vinogradov predikativlik kategoriyasining ifoda vositalariga modallik, zamon va shaxs kategoriyalarini kiritadi, professor N.Y.Shvedova faqat modallik va zamon kategoriyalarini kiritadi.

Shuningdek, predikativlik masalasiga olimlar keng to'xtaladi: Vinogradov V.V.: Gapni shakllantiruvchi umumiy predikativlik kategoriyasining ahamiyati va vazifasi gap mazmunini borliqqa munosabatdor qilishdan iborat.

M.Z.Zakiev: Gapning borliq haqidagi xabar berish tomoni predikativlikni, so'zlovchining borliqqa munosabatini ifoda qilish tomoni esa modallikni tashkil qiladi.

A.B.Shapiro: Predikativlikning ifoda qilinishi uchun predikatning bo'lishi shart emas, predikativlik bir sostavli gaplarga ham xos. Har qanday gapni xarakterlovchi zaruriy belgi predikativlik emas, modallikdir. Modallik predikativlikka nisbatan keng kategoriyadir.

Y.V. Loya: Gap bevosita u yoki bu modallikda ifoda qilinadi. Predikativlik ega va kesimning o'zaro munosabati bilan ifoda qilinadi, shuning uchun ham u ega va kesim mavjud bo'lgan ikki sostavli gaplargagina xos.

Admoni V.G: Modallik predikativlik bilan bevosita aloqada bo'lmaydi.

Galkina-Fedoruk E.M: eganing kesim orqali ifodalangan belgilar bilan aloqasi – modal tasdiqlash yoki inkor qilish predikativlikdir.

I.Rasulov bu fikrlarni umumlashtirar ekan, tilshunoslikda predikativlik va modallikning izohida va ularning o'zaro munosabati va farqli jihatlarini belgilashda fikrlarda ma'lum ziddiyatlar borligini ta'kidlaydi va shunday deydi: "Gapda ifoda qilinayotgan fikrning so'zlovchi nuqtai nazaridan real borliqqa bo'lgan munosabati – modallik ma'lum konstruktsiyaning gap bo'lishi uchun zaruriy belgilardan hisoblansa ham, hali u gapning shakllanishi uchun etarli emas. Ma'lum konstruktsiyaning gap bo'lib kelishi uchun kengroq kategoriya – mazmunning real borliqqa munosabatini ifoda qilish kerak bo'ladi. Buning uchun sintaktik mayl kategoriyasi boshqa kategoriyalar bilan qo'shilishi talab qilinadi. Umuman ob'ektiv modallikni ifoda qiluvchi sintaktik mayl kategoriyasi sintaktik zamon, shaxs-son kategoriyalari bilan birgalikda gapning grammatik ma'nosini ifoda qiladi. Bu gap mazmunining borliqqa bo'lgan munosabatiir. Bu tushuncha keyingi yillarda nashr qilingan lingvistik adabiyotlarda *predikativlik* termini bilan ifoda qilina boshladi. Bu ma'noda *predikativlik* terminini tilshunoslikdagi

traditsion ma`nosi (ega va kesim munosabati) yo`qotib, yangi ma`no ifodasi uchun qo`llana boshladi. Demak, predikativlik har qanday gapning asosi. U gap hosil qiluvchi kat'egoriya bo`lib, gapda ifoda qilinayotgan fikrning borliqqa bo`lgan munosabatini modal planda hamda zamon va shaxs-sonda ifoda qiluvchi kategoriyadir.”²⁴

²⁴ Расулов И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида бир составли гаплар, - Б.56.